

## TONG YULDUZI

Kamolov Yaxyobek Jo‘ramirza o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2-bosqich kursanti

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymonqul o‘g‘li Cho‘lponning she‘riyat va yozuvchilikda qilgan ijodiy ishlari muhokama qilinadi. Shuningdek, uning vatanimiz tarixida va adabiyotida o‘chmas iz qoldirgani haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Cho‘lpon, shoir, she‘riyat, dramaturg, adib, professional, xalq, ma‘naviyat.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil demokratik davlat. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ko‘plab o‘zgarishlar, shart-sharoitlar yaratila boshlandi va hali-hamon davom etmoqda. Shunday tinch zamonga shod-u hurramlik, to‘y-u tantana, bayramlar yarashadi. Har bir mustaqil davlat albatta bayramlar qilishga, hayotdan zavq olib yashashga haqli. O‘zbek xalqining ham o‘ziga yarasha urf-odat, qadriyat va bayramlari mavjud. Biz bunday kunlarni tantana bilan nishonlaymiz. Tinch yurtda har bir lahza, har bir kun muqaddas. Vatanimizni shunday yorug‘ kunlarga yetaklagan shaxslardan biri bu – Abdullhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpondir. Uning asarlari yutimiz bo‘ylab, jumladan bizning IIV Akademiyasi kursant va tinglovchilari tomonidan sevib o‘qiladi. Cho‘lponning iqtidori noyob, iste‘dodi o‘tkir edi. Biroq u o‘z ijodiy imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqara olmagan. Shoir ko‘zi ko‘rgan, ko‘ngli tuygan, iqtidori pishitgan durdona asarlarini qog‘ozga ko‘chirishga ulgurmay, armon bilan dunyodan o‘tgan. Cho‘lpon shaxsga sig‘inish hukmronlik qilgan qaltis davrda, ayni kuchga to‘lgan va ijodiy kamolotga yetgan chog‘i “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinib, 1938-yili qatl etildi. 1956-yilda Cho‘lpon nomi oqlandi. Biroq bu holat uni ijodkor sifatida o‘qib o‘rganish imkonini bermadi. Faqat istiqbolga erishilganidan so‘nggina uning ijodi o‘zining asl bahosini oldi, qadrini topdi. Cho‘lponning ko‘plab she‘rlari, mustamlakachilikka qarshi isyon tarzida bitilgan. U kitobxonlarda har bir inson uchun o‘z vatani nechog‘lik aziz ekanini ko‘rsatib turadi. “Ko‘ngil” she‘rida shoir millatga murojaat etib, bo‘ysunmaslikka chaqiradi:

**Tiriksan, o‘lmagansan**

**Sen-da odam, sen-da insonsen,**

**Kishan kiyma, bo‘yin egma,**

**Ki sen ham hur tug‘ilg‘onsen.**

Shoirning “Xalq” she‘rida esa ozodlik va erk mavzusi yanada boshqacha bir yo‘sinda, g‘oyat aniq va tiniq bo‘yoqlarda aks ettirilgan:

**Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,**

**Xalq isyondir, xalq olovdur, xalq o‘chdir...**

**Xalq qo‘zg‘alsa kuch yo‘qdirkim, to‘xtatsin,**

**Quvvat yo‘qkim, xalq istagin yo‘q etsin.**

**Xalq isyoni saltanatni yo‘q qildi,**

**Xalq istadi: toj va taxtlar yiqildi...**

Asarda shoir xalqning buyuk kuch-qudrat sohibi ekanini tasvirlash bilan birga, uning eng ezgu va muqaddas istagini ham obrazli tarzda ko‘rsatib beradi. Boshqacha qilib aytganda, xalq istagi o‘z erkini o‘z qo‘liga olib, ozodlikka erishishdir. Cho‘lpon nazdida, agar xalq istagi sari qo‘zg‘alsa, uni hech qanday kuch tutib qola olmaydi. Faqat gap xalqda ana o‘sha tilakni, istakni uyg‘ota olishdagina ekanligini ham shoir teran anglaydi. Shirning istagi xalqda istak uyg‘otishdir:

**Xalq istagi – ozod bo‘lsin bu o‘lka,**

**Ketsin uning boshidagi ko‘lanka.**

Umuman olganda, Cho‘lpon she‘riyati mazmunan boy va shaklan go‘zal. Cho‘lpon she‘riyatining asosiy xususiyatini erksevarlik, millatparvarlik, haqqoniylik va xalqchilik, g‘oyaviy aniqlik va badiiy go‘zallik singari fazilatlar tashkil etadi. Shoir nazmining tili obrazli va shirali bo‘lishi bilan birga, g‘oyat sodda, ixcham va tom ma‘noda xalqchildir. Ana shuni nazarda tutib, adabiyotshunos olim Ozod Sharofiddinov 1920-yillardayoq: “Cho‘lponning tili sodda, har turli fikrlarni ifoda qilishga yararli va nuqsonsizdir. Bu kungi o‘zbek adabiy tili, shubhasiz, Cho‘lpon tilidir”, - deb yozgan edi. Oybek esa: “Bu kungi yosh nasl Cho‘lponning sodda tilini, totli uslubini, texnikasini ko‘p sevadi. Undan ko‘p go‘zalliklar oladi”, - tarzida hassos shoir tiliga yuksak baho bergandi.

Cho‘lpon she‘riy, nasriy asarlar yaratish bilan bir qatorda, adabiy-tanqidiy va publitsistik maqolalar ham yozgan. Maslan, 1914-yilda yozilgan “Adabiyot nadur?” maqolasi hozirgi kunda ham o‘z qimmatini saqlab kelmoqda. 17 yashar yigit tomonidan bitilgan bu maqolada adabiyotning kishilik jamiyatidagi o‘rni va ma‘suliyati haqida, teran fikr-mulohaza yuritilgan. Cho‘lpon, avvalo, “Adabiyot nadur?” degan savolga javob berib, “Hayotimizning beto‘xtov harakat qilib turmog‘i uchun suv, havo naqadar zarur bo‘lsa, kundalik maishatimiz yo‘linda ruhimiz va vujudimizni zahmatkash falakning qora kirlari, achchiq qurumlaridan yuvib turmoq uchun adabiyot shul qadar zarurdir”, - deb yozadi. So‘ngra millatning istiqboli adabiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq ekanini qayd etib, so‘z san‘atining ahamiyatini kamsitgan millatning kelajagi porloq emasligini ta‘kidlaydi.

Cho‘lponning ikki kitobdan iborat bo‘lgan “Kecha va Kunduz” tarixiy romani adabiyotimizning oltin xazinasidan mustahkam joy egallagan. Romanda birinchi jahon urushi davridagi Turkiston hayoti aks ettiladi.

Ushbu asarda Miryoqub epaqa nomli obraz bo‘lib, u shamolning qaysi tomonga esishiga qarab ish tutadi, yangilik, o‘zgarish tarafdori, millat qayg‘usi bilan yashaydigan insondir. Cho‘lpon romanda Miryoqub obrazini yaratishda personajda o‘z-o‘zini fosh etish usulidan o‘rinli



foydalangan. Asarda Miryoqub tergovchi bilan Miryoqub aybdor o'rtasidagi ichki dialog, ya'ni personajning o'z-o'zi bilan savol-javob qilib so'zlashishi muvaffaqiyatli chiqqan.

“Kecha va Kunduz” romanida chorizmning halokat tomon borayotgani, mustamlakachilar kidrikorlari, yovuz niyatlari, mahalliy xalqning ilm olishi, ma'rifat egallashi, umuman yurt taraqqiyotiga qarshi xatti-harakatlar yuksak badiiyat bilan ifodalangan.

Ushbu asarda yozuvchi ko'plab yomon illatlarni ham qoralaydi. Jumladan, “Mastning ko'ziga mushuk fil, fil mushuk bo'lib ko'rinadi. Mastlikda xotin tanlab bo'ladimi? Kampirni pari qiz qilib ko'rsatadigan tilsimli oyna – ichkilikdan boshqa narsa emas!” deya ta'kidlagan.

Romanda tasvirlanishicha, Noyib to'ra mingboshini jadid maktabini yopishga majbur qiladi. Buyruqdan unchalik ham rozi bo'lmagan Akbarali mingboshi ilojsizlikdan: “Noyib to'ra qo'ymaydi-da, qanday qilay”, - deydi. Shunda Miryoqub epaqa: “Noyib to'ra ayyor odam, o'zi buyruq berub yoptirsa bo'lardi, unday qilmadi. O'zi bir chekkada turib, siz orqali qildirdi... tayoq endi kelib sizning boshingizda sinadi!”, - deyishining o'ziyoq uni yetti o'lchab bir kesadigan odam ekanligidan dalolat beradi.

“Kecha va kunduz”da xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo'lgan barcha ziddiyatlar, adibning bor o'ylari ifodalangan. Asardagi asosiy ijobiy qahramonlardan biri bo'lgan xushovoz, sodda qiz Zebi – beg'ubor hayot kechirishni, yoshlik gashtini surishni orzu qiladi. Lekin uni zo'rlab, xohishini hisobga olmay, Akbarali mingboshiga uch xotin ustiga beradilar. Zebi mingboshining to'rtinchi xotini sifatida kundoshlar o'rtasida buzuqliklarning, rashk-u mojarolar va zimdan meros talashishlarning guvohi bo'ladi. Tasodif tufayli Zebiga atalgan zaharni Akbarali mingboshi ichib vafot etadi. Ushbu o'limda Zebi ayblanib, sudga tortiladi. Romanda Zebi xarakteri, uning ruhiyati g'oyat tabiiy ko'rsatib berilgan. Zebi shu darajada sodda va oqko'ngilki, u birovga yomonlik qilishni hayoliga ham keltirmaydi. U qamoq, sud va surgun haqida tasavvurga ham ega emas. Shuning uchun bu sodda musulmon sudda o'tirganida ham hukm, jazo qanday bo'lishini emas, balki butunlay boshqa narsani – musulmonchiik qoidalariga shak keltirmaslikni o'ylaydi: “Voy, o'laqolay! Shuncha nomahramni oldida yuzimni ochamanmi? Undan ko'ra o'lganim yahshi emasmi?”. Asarni o'qish davomida kitobxon Zebining otasi Razzoq so'fi, onasi Qurvonbibi obrazlari ham mahorat bilan yaratilganiga guvoh bo'ladi. Razzoq so'fi ruhan mayib, ma'nan qashshoq shaxs bo'lsa, Qurvonbibi insoniy huquqlari o'sha adolatsiz jamiyat tomonidan oyoqosti qilingan va har jihatdan ezilgan mushtipar, mehribon ona obrazidir. Muallif bu ikki obraz vositasida hayotdagi moddiy qiyinchiliklar kishining ma'naviyatiga qanchalar ta'sir etishini, uning dunyoqarashini, fikrlash doirasini cheklab qo'yishini haqqoniy aks ettirgan.

“Kecha va kunduz” romanida nopok va nodon, maishatparast va ma'naviy tuban mingboshi Akbarali, mamlakat va xalq boshiga balo bo'lgan mustamlakachi amaldor Noyib to'ra obrazlari ham muhim o'rin egallaydi. Ular vositasida birinchi jahon urushi davridagi mahalliy amaldorlarning ichki va tashqi dunyosi, ularning xalq va mamlakat manfaatiga zid xatti-harakatlari fosh etilgan. Asarda mamlakatda o'sha davrda hukm surgan ijtimoiy adolatsizlik,

shu bilan birga, mamlakat buyuk ijtimoiy o'zgarishlar arfasiga kelib qolgani ishonarli tarzda ko'rsatib berilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Cho'lponning ijodiga nafaqat bizning yurtimizda balki butun jahon bo'ylab qiziqish katta. Bu so'zlarning isbotini shunda ko'rishimiz mumkinki, AQSH fuqarosi tarjimon Kristofer Ford o'zbekning jasoratli shoiri va yozuvchisi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Kecha va kunduz" (Night and day) asarini ingliz tiliga tarjima qildi.

Xalqimizning jonkuyar farzandi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning hayot yo'li, ijodiy faoliyati biz yoshlar uchun doimo dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Uning asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, adolatsizliklarga yo'l qo'ymaslik, mardlik, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurasha olish fazilatlarini o'zimizda namoyon etishga intilamiz. Yozuvchining hayot yo'li bilan tanishish orqali, kindik qonimiz to'kilgan vatan oldidagi o'z vazifamiz va burchimizni har qanday qiyinchilik, mashaqqatlarga uchrasakda, o'z vaqtida ado etmog'imiz lozim ekanligini anglaymiz. Zero, ijodkorning o'zi ta'kidlaganidek, "Haq yo'li, albatta bir o'tilg'usi".

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qosimov B. va boshqalar. "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti". – T.: "Ma'naviyat", 2004. 272-bet.
2. To'lakov I. Cho'lpon mahorati. – Andijon: "Mehr" nashriyoti, 1997. 37 b.
3. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash. – T.: "Yozuvchi", 1994. 46-bet.
4. Cho'lpon A. Go'zal Turkiston. – T.: Ma'naviyat, 1997. 7-bet.
5. Cho'lpon. Tanlangan asarlar. Toshkent. "Ma'naviyat", 2006.